

**GEOGRAFIYA TA'LIMIDA KLASSTER METODI ("MIRZACHO'L
TABIIY GEOGRAFIK O'LKASINING IQLIMI, ICHKI SUVLARI"
MAVZUSI MISOLIDA)**

**Atabayeva Mavjuda Rustamovna
Rustamova Maftuna Anvarjon qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi**

Urganch Davlat Universiteti akademik litseyi geografiya fani o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada "O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursi"da "Mirzacho'l tabiiy geografik o'lkasining iqlimi, ichki suvlari" mavzusini interfaol o'rganishda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini klaster metodi asosida rivojlantirish haqida so'z yuritilgan, klaster metodining qo'llanilishi va afzalliklari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, pedagogik texnologiya, klaster metodi, interfaol metod, ta'lim, tanqidiy fikrlash, klasterli topshiriq, klasterli test, ta'lim metodlari, geografiya ta'limi.

**CLUSTER METHOD IN GEOGRAPHY EDUCATION (IN THE
EXAMPLE OF THE SUBJECT "CLIMATE, INLAND WATERS OF
MIRZACHOL")**

**Atabayeva Mavjuda Rustamovna
Rustamova Maftuna Anvarjon qizi**

Urgench State University Academic lyceyum geography teacher

Annotation: In the "Course of Physical Geography of Uzbekistan" it was mentioned about the development of critical thinking skills based on the cluster method in the interactive study of the topic "Climate, inland waters of Mirzachol", the use and advantages of the cluster method.

Keywords: Innovation, pedagogical technology, cluster method, interactive method, education, critical thinking, cluster task, cluster test, educational methods, geography education.

**КЛАСТЕРНЫЙ МЕТОД В ГЕОГРАФИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ
(НА ПРИМЕРЕ ТЕМА «КЛИМАТ, ВНУТРЕННИЕ ВОДЫ ОКРУГА
МИРЗАЧУЛА»)**

**Атабаева Мавжуда Рустамовна
Рустамова Мафтуна Анваржон кизи**

**Учитель географии академического лицея Ургенчского
Государственного Университета по имени Абу Райхана Беруни**

Аннотация: В данной статье рассказывается о развитии навыков критического мышления на основе кластерного метода при интерактивном изучении темы «Климат, внутренние воды округа Мирзачула» в «Курсе физической географии Узбекистана», а также приводится информация о применении и преимуществах кластерного метода.


Ключевые слова: Инновация, педагогическая технология, кластерный метод, интерактивный метод, образование, критическое мышление, кластерное задание, кластерный тест, методы обучения, географическое образование.

Kirish.

Pedagogikada innovatsiya tushunchasi XX asrning 60-yillarida dastlab AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida "ta'lim texnologiyasi" tushunchasi e'tirof etilgan paytda paydo bo'ldi. Innovatsiya inglizcha "innovation"- "yangilik kiritish" ma'nosidagi tushuncha hisoblanadi, innovatsiya bu- yangilanishni, o'zgarishni amaliyotga joriy etish jarayoni va faoliyati (kiritilgan yangilik, ixtiro) dir. Ilmiy texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqaruv va mehnatni tashkil etish kabi soxalardagi yangiliklar, shuningdek ularning turli soxalar va doiralarda qo'llanilishini aks ettiradi [10].

Innovatsiya tushunchasi esa bugungi ta'lim tizimining muhim bo'g'ini, ajralmas qismi hisoblanadi, chunki bugun ta'limni yangilik yaratmasdan turib rivojlantirish juda qiyin. Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar kirib kelar ekan, zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir, bu borada bizga innovatsiya tushunchasi, tizimga olib kiriladigan metodlar yaqindan yordam beradi, ayniqsa o'quvchilarda dars jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va darsni qiziqarli tashkil qilishda ayrim metodlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodkorliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda. Zamonaviy dars jarayonlarida o'quvchilarning mustaqil, erkin fikr bildirishiga imkon berish, ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun ta'limning turli metodlardan foydalanish, o'quvchilarda kreativlikka yo'l berish, o'quvchilarning zehniini uyg'otadigan, faollashtiradigan metodlarni ta'lim jarayoniga tadbqiq qilinishi kerak.



1-rasm. Ta'lim texnologiyalari klasteri

Ushbu klasterda aks ettirilganidek ta'limni har qanday holda samarali tashkil qilishda turli usul va texnologiyalarni qo'llash orqali juda katta natijaga erishish mumkin. Zamon bilan hamnafas pedagogik faoliyat yuritayotgan moderator o'qituvchilar yuqorida qayd etilgan talablarga monand holda o'qitishda interfaol metodlar, pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha muayyan tajribalarni egallamoqda. O'quvchilarda tayanch va fanga doir tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish tarkib toptirishda o'qituvchida mavjud kasbiy-pedagogik va xususiy kompetentsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning "Klaster" usulini qo'llash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish asosidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish muammosi pedagogika va geografiya o'qitish metodikasi sohasining dolzarb masalasi sanaladi.

Adabiyotlar tahlili.

Mamlakatimizda pedagogik ta'lim klasteri va uni amaliyotga tatbiq etish muammosi alohida tadqiqot ob'ekti sifatida keyingi yillarda keng o'rganilmoqda. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari, ta'limda yangi innovatsion yo'nalish sifatidagi tavsifi va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari G'.I.Muxamedov, U.N.Xodjamqulov, Sh.I.Botirova, Sh.Q.Mardonov, R.Eshchanov, D.Bekchanovlarning; klaster yondashuvi asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari ta'lim samaradorligini oshirish texnologiyasi S.A.Toshtemirova, Sh.Botirova, N.Koshanovlarning tadqiqotlarida yoritilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida ta'lim klasterlarini tashkil etish va amaliyotga tatbiq etish muammolari A.Yasheva, B.Pugacheva, A.G.Granberg, M.Galushkina, A.V.Leont`ev, N.V.Gorodnova, P.F.Anisimov, G.I.Ibragimov, D.L.Skipin, V.P.Panasyuk,

N.Ye.Yegorov, T.I.Shamova, N.YE.Stenyakova, O.G.Gruzdova, S.A.Ivanova, A.V.Lagutkin, L.Yu.Grudsina, N.A.Mishura, L.L.Naumova; A.S.Subetto, Ye.A.Korchagin, N.A.Sharay, L.N.Nikolaeva, T.V.Vdovinalar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Xorijlik olimlardan A.Marshall, M.Porter, O.Solver, G.Lindqvist, S.Ketelslarning ilmiy izlanishlarida klaster modelining muayyan sub'ektlar raqobatbardoshligini oshirishdagi roli, ta'lim klasterlari modelining yagona tipologik xususiyatlari AQSH va Yevropa mamlakatlari misolida ochib berilgan. [12]

Pedagogik ta'lim tizimining raqobatbardoshligi darajasini oshirish va jahon standartlari darajasiga ko'tarish, ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan muassasalarni umumiy maqsad yo'lida birlashtirish zaruriyati ta'kidlanadi.

Ayniqsa ta'lim jarayoni davomida o'quvchilarda har tomonlama erkin fikr va mulohazalarni shakllantirish uchun ta'lim jarayoni maqsadi butunlay shaxsga yo'naltirilmog'i lozim. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchi shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodiylikni his etish kabi sifatlarni tarbiyalaydi. [2, 86-87-b]. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni har qanday fanni o'quvchiga yetkazish uchun qo'llash juda yaxshi samara beradi, ayniqsa geografiya darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni shakllantirish orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish mumkin, bunda esa interfaol metodlardan biri-klaster metodi juda katta yordam beradi. Tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishda asosan darsni shunday tashkil etish kerakki, unda o'qituvchi faqat materialni ifodalovchi, o'quvchilar esa tinglovchi bo'lib qolmasliklari kerak, ya'ni o'rganilayotgan manbaga nisbatan o'quvchida tanqidiy fikrlash ko'nikmasi shakllanishi kerak. Klaster atamasi amerikalik iqtisodchi, Garvard maktabi professori, raqobat imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha mutaxassis bo'lgan Maykl Porter tomonidan ilk bor qo'llangan edi. U klasterga geografik jihatdan qo'shni bo'lgan, bir-biri bilan bog'langan, muayyan bir sohada faoliyat olib boradigan hamda bir-birining ishini to'ldiradigan korxona va tashkilotlar birlashmasi sifatida ta'rif bergan. [4] Pedagogikada «klaster (cluster)» - «tarmoqlar metodi texnologiyasi» deb ham ataladi va bu metod mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan, biron-bir mavzuni chuqur o'rganishdan oldin o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladigan usul ma'nosida qo'llaniladi. [12]. Ye.M.Tereshina va V.M.Volodinaning maqolasi muallifning tarmoq yondashuvi nuqtai nazaridan "Klaster" tushunchasiga ta'rifini beradi: "Klaster - bu asosan mustaqil, geografik jihatdan qo'shni, asosan norasmiy ravishda o'zaro bog'liq va o'zaro bir-birini

to'ldiruvchi tashkilotlarning tarmoq guruhi bo'lib, ularning raqobatbardoshligi va iqtisodiy faolligi darajasini oshiradigan turdosh sohalaridagi hamkorlik, raqobat va tarmoq munosabatlari tamoyillari asosida moslashuvchan va tezkor harakat qiladi. hudud" [3, 165-bet].

"Klaster" tushunchasining barcha ta'riflari odatda o'xshash va quyidagi umumiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

- 1) Klaster korxonalari va tashkilotlarining geografik kontsentratsiyasi va yaqinligi;
- 2) yagona kuchli yetakchiga yega ishtirokchilarning keng doirasi;
- 3) ishtirokchilar o'rtasida barqaror va uzoq muddatli aloqalarning mavjudligi;
- 4) Klaster a'zolari va uning joylashgan mintaqasining kuchli raqobatbardosh pozitsiyalari.


"Klaster" atamasining turli formulalarini tahlil qilish asosida "Ta'lim klasteri" tushunchasining quyidagi talqinini taklif qilish mumkin: Ta'lim klasteri - bu bir xil hududda joylashgan, gorizontal va vertikal aloqalar bilan bog'langan, tegishli huquqiy shaklga ega bo'lgan va kasb-hunar ta'limi sohasida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, hokimiyat organlari majmui, individual ishtirokchilarning maqsadlari asosida yagona maqsadlarga erishish uchun sinergetik ta'sirdir. [12]

Shuning uchun darslikni mustahkam o'rganishda ta'limning turli interfaol metodlardan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Jumladan, "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" kursini mustahkam o'rganishda interfaol metodlardan-klaster metodining ahamiyati katta. Chunki bu metod orkali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin, shu sababli O'zbekiston tabiiy geografiyasi bo'limi manbalarini o'quvchilarga o'rgatishda klaster metodidan foydalanilsa albatta ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Ayniqsa davlatimiz rahbarining quyidagi ibratomuz fikrlari bu borada bizga yanada kuch va g'ayrat baf'ishlaydi: "Ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizda har bir farzandni "bu mening farzandim, ertangi kunimning poydevori, zamini" deb tarbiya qilsak albatta natijaga erishamiz"[1].


Muhokama va Natijalar

Xususan, geografiya ta'limida "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" kursini o'qitishda o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda klaster metodidan foydalanish juda katta qulaylik tug'diradi. O'lkani har bir manbalarini o'rganishda turli murakkablikdagi klasterlardan foydalanish dars jarayonida o'quvchini tinmay fikrlashga o'rgatadi, ayniqsa fikrlar to'qnashuvi yuzaga kelishi oqibatida sinfda


tanqidiy fikrlash muhiti paydo bo'ladi, xususan o'lka haqidagi bilim manbalarni mustahkam o'rganishda manbalarni klaster topshirig'i sifatida berilishi maqsadga muvofiq. Masalan, O'zbekistonning geografik o'rni o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratgan holda orqali o'rganilsa, "Mirzacho'lning iqlimi, ichki suvlari" klaster usuli orqali o'rganilishi mumkin, bunda quyidagi topshiriqlardan foydalanish yuqori samara berishi mumkin. O'lka iqlimini izohlashda murakkab klasterlar tuzish zarur bo'ladi, sababi iqlim ko'rsatkichlari – harorat, yog'in, shamollar, bug'lanish, yog'ayotgan yog'inning yer yuzida saqlanish muddatlari ham darslik matnida aks etar ekan klasterlar orqali o'quvchi keltirilgan manbalarni keng va batafsil yoritadi.



2-Rasm.Mirzacho'l tabiiy o'lkasi iqlimi klasteri.




3-Rasm. Mirzacho'l tabiiy o'lkasi tabiat zonasi klasteri.



4-Rasm. Mirzacho'l tabiiy o'lkasi tabiat zonasi klasterini davom qildiring.

O'lkaning ichki suvlari klasteri ham asosan daryo va ko'llarning kelib chiqishi, suv rejimi, to'lin suv davri, to'yinishi, irmoqlari kabi xususiyatlarni o'zida aks ettiruvchi klasterlar tuzish zarur bo'ladi. Okrugning eng yirik va asosiy suv manbayi — Sirdaryo, Sangzor. Quyidagi klasterda asosiy ichki suvlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.



5-Rasm.Mirzacho'1 tabiiy o'lkasi ichki suvlari klasteri.

Xulosa

Ko'rinib turibdiki, ta'lim –tarbiya sifat va samaradorligini oshirish dolzarb vazifa bo'lib borar ekan, buning uchun har bir o'qituvchi o'z fanini o'qitishning eng samarali texnologiyalarini puxta bilishi va bu soxadagi yangiliklarni uzluksiz o'rganib borish orqali o'z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi talab qilinadi. Bu jarayon o'z navbatida raqobatbardosh, izlanuvchan, ayniqsa kreativ fikrlaydigan, yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashga imkon beradi. Umuman olganda, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan noan'anaviy texnologiyalar talabalarning motivatsiyasini oshiradi, hamkorlik muhitini shakllantiradi va ularga ijodiy erkinlik, o'z-o'zini hurmat qilishlik hissini beradi. Bu borada esa doimo yangilikka intilish, dars jarayoniga innovatsion texnologiyalar, turli interfaol metodlarni olib kirish orqali zamon talabidagi tanqidiy fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Xalqaro kongress markazida o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvidagi nutqidan.[2022 yil 29-dekabr].
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.Toshkent-“O'zbekiston”-2016y. B 14
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида юридик таълим ва фанни тубдан такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5987-сон Фармони: Тошкент ш., 2020 йил 29 апрель.
- 4.Muhammedov G'. I. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ehtiyoj,zarurat, natija. –Xalq so'zi, jamiyat, 15 fevral 2019 y.
5. Mushtavinskaya, I.V. Darsda va o'qituvchi tayyorlash tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi [matn]/ I. V. Mushtavinskaya. – M.: Karo, 2009. - 144 b.
- 6.Tolipov O'. Pedagogik texnologiya (Nazariya va amaliyot) Toshkent : “Fan” 2005
- 7.Zagashev I., Zair-Bek S. Tanqidiy fikrlash: rivojlanish texnologiyasi [matn]/ Sankt-Peterburg.: "Skifiya" va "Alyans Delta", 2003. - 284 b.
8. Zair-Bek S.I., Mushtavinskaya I.V., Darsda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, M., Ma'rifat, 2011.
9. Ларионова Н.А. Кластерный подход в управлении конкурентоспособностью региона // Экономический вестник Ростовского гос. ун-та. 2007. № 1.
10. Toshpo'latov M Klaster: mohiyat, samara va istiqbol. - <http://www.biznes-daily.uz/ru/mening-mulkim/53616>
11. To'raqulov X. Haydarov M., Xasanboyeva O, Usmanov N.Pedagogika fanidan izohli lug'at. - T.: Fan va texnologiya. 2009,- 672 b.
12. Talim –tarbiya jarayonini klasterli yondashuv asosida boshqarish masalalari. Ernazarova G.O. YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA IQTISODIY FANLARNI O‘QITISHNING DOLZARB MASALALARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI 16-iyun, 2023y.34-bet